

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

*Mualliflar:*

*Pedagogika va psixologiya  
kafedrasi o'qituvchisi*

*Kadirova Omadxon,  
Maktabgacha ta'lism yo'nalishi  
201-guruh talabasi  
Shavkatjonova Mohinur*

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish yo'llari, ijodkorlikni shakllantirishga yordam beruvchi omillar va pedagogik yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, bolalar faoliyatida o'yin, tasviriy san'at, musiqiy mashg'ulotlarning o'rni yoritilgan.

### **ANNOTATION**

This article analyzes the ways of developing creative thinking in preschool children, the factors that help to form creativity, and pedagogical approaches. It also highlights the role of play, visual arts, and music activities in children's development.

**KALIT SO'ZLAR:** ijodkorlik, maktabgacha yosh, ijodiy fikrlash, pedagogik yondashuv, o'yin, tasviriy san'at

**KEYWORDS:** creativity, preschool age, creative thinking, pedagogical approach, play, visual arts

### **KIRISH**

Maktabgacha yosh davri bolaning psixologik va aqliy rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Shu davrda bolaning ijodiy salohiyati, qiziqishi va mustaqil fikrlashi shakllana boshlaydi. Ijodkorlik bolaning atrof-muhitni o'rganish, yangi g'oyalarni ilgari surish va o'ziga xos fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu sababli, maktabgacha ta'lism tizimida bolalarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **ASOSIY QISM**

Ijodkorlikni rivojlantirish uchun avvalo bolaga erkin fikrlash, tajriba o'tkazish va mustaqil qaror qabul qilish imkonini beruvchi muhit yaratish zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatida quyidagi yo'llar ijodiy salohiyatni oshirishda samarali hisoblanadi:

1. Erkin o‘yinlar orqali ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish. O‘yin – bolalar uchun tabiiy faoliyat turi bo‘lib, ular orqali bolalar turli rollarni bajaradi, tasavvur qiladi va yangicha yechimlar topadi [1].
2. Tasviriy san’at mashg‘ulotlari. Rasm chizish, yelimlash, loydan haykal yasash kabi mashg‘ulotlar bolada noan’ anaviy fikr yuritish va estetik didni rivojlantiradi [2].
3. Musiqiy faoliyat. Qo‘sish qaylash, musiqa tinglash va cholq‘u asboblarida chalish bolalarning emotsiyonal dunyosini boyitadi va ijodiy ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi [3].
4. Savol-javob va muammoli vaziyatlar yaratish. Bolalarga turli savollar berish, muammoli holatlar orqali ularni mustaqil fikr yuritishga undash ijodkorlikni rivojlantiradi [4].
5. Pedagogik yondashuv. O‘qituvchining qo‘llab-quvvatlovchi, erkin fikrni qadrlovchi yondashuvi bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va ijodiy faoliyatga qiziqishini kuchaytiradi [5].
6. Ijodiy muhit va makonning ta’siri. Bolalarning ijodiy rivojlanishida ularning atrofidagi muhit muhim o‘rin tutadi. Yorqin ranglarda bezatilgan, ijodiy faoliyat uchun qulay shart-sharoit yaratilgan sinfxonalar bolalarda yangi g‘oyalarni kashf etishga ilhom beradi. Bunday muhitda bolalar o‘zlarini erkin tutadi va yangi narsalarni sinab ko‘rishdan qo‘rqlaydi [6].
7. Ota-onalar bilan hamkorlikning ahamiyati. Bolaning ijodiy salohiyatini to‘liq rivojlantirish uchun ota-onalar va pedagoglar o‘rtasida doimiy aloqani yo‘lga qo‘yish zarur. Uyda bolaga erkinlik berish, birgalikda ijodiy loyihalar bajarish (masalan, qo‘g‘irchoq yasash, hikoya to‘qish) ularning ijodiy qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi [7].

### **XULOSA**

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish – ularning har tomonlama kamol topishiga zamin yaratadi. Ijodiy faoliyat orqali bolalar o‘z imkoniyatlarini namoyon eta oladi, mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish ko‘nikmalarini egallaydi. Pedagoglar, tarbiyachilar va ota-onalarning hamkorligi, qo‘llab-quvvatlovchi muhit ijodiy salohiyatni to‘liq ro‘yobga chiqarishda muhim omil hisoblanadi.

Ijodiy faoliyat bilan muntazam shug‘ullanuvchi bolalar kelajakda mustaqil fikrlaydigan, yangilikka intiladigan va muammolarga noodatiy yondasha oladigan shaxs sifatida shakllanadi. Shu sababli, ijodiy rivojlanishga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlari, metodik qo‘llanmalar va o‘quv rejalarini ishlab chiqish dolzarb vazifadir. Maktabgacha ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonni ijodiy yondashuv asosida tashkil etish kelajak avlod tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Amonov M. "Maktabgacha ta'lim psixologiyasi." – Toshkent, 2020.
2. Karimova D. "Ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodlari." – Samarqand, 2019.
3. Abdullaeva G. "Musiqa orqali bolalar tarbiyasi." – Toshkent, 2021.
4. Nishonova Z. "O'yin faoliyati va bolalar ijodi." – Farg'on, 2022.
5. Ismoilov U. "Pedagogik yondashuvlar nazariyasi." – Buxoro, 2018.
6. Qurbonova S. "Maktabgacha ta'limda estetik muhit." – Toshkent, 2023.
7. Yuldasheva N. "Ota-onalar bilan hamkorlik: tajriba va amaliyot." – Andijon, 2022.

